

**MAKTABDA KICHIK GURUHLAR DOIRASIDAGI O'QUVCHILARGA  
PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

*Djurakulova Matluba Xolmurodovna*

*Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti Psixologiya yo'nalishi  
2-bosqich magistranti Buxoro pedagogika kolleji o'quv bo'limi uslubchisi*

**ANNOTATSIYA**

Makur maqolada ta'lim tizimidagi islohotlar, ular orqali amalga oshirilayotgan ishlar, psixologik xizmat ko'rsatishning turlari hamda maqsad, vazifalari yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'limning birinchi bosqichi hisoblanmish, ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib kelmoqda. Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qishlariga tayanadidlar. Amaliyotchi psixolog o'z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko'rsatuvchi jamoachilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi-shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, to'laqonli psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish ob'ekti maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, o'quvchilar, ota-onalar bo'lib hisoblanadi, ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish mumkin.

**Kalit so'zlar;** ta'lim, psixologik xizmat, kasbiy faoliyat psixologik tashviqot, taraqqiyot, o'quv-tarbiya;

**KIRISH**

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andazalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Psixologiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarni psixologiya fanining asoslari, tarixiy taraqqiyoti, hozirgi zamon psixologlarining ilmiy yondashishlari bilan, shuningdek, turli yoshdagi insonlarda o'qish jarayonida shaxs fazilatlarini shakllantirish qonuniyatlari va kasbiy malakalarni egallash xususiyatlari bilan

tanishtirishdir. Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lishi, umumiy va kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas'uliyatni his eta bilishi lozim. Tarbiyachilik kasbiga xos psixik holatlar va xarakter maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashning psixik asoslari va qonuniyatlari haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan va ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishdan iborat.

## ASOSIY QISM

### 1. Psixologik xizmatni tushunish

Bu bo'limda biz "Maktabda Kichik Guruhlar Doirasidagi O'quvchilarga Psixologik Xizmat Ko'rsatishning O'ziga Xos Xususiyatlari" nomli ish uchun psixologik xizmatning umumiy tushunchasini ta'riflashimiz kerak. Psixologik xizmat, o'quvchilarga, ularning o'zaro muomala va o'zning mustaqil tartibini boshqarishda davom etayotgan maxsus malakali mutaxassisning o'quvchi bilan tashkilotlashgan tajribo va bilimlar to'plamidir.

### 2. Psixologik xizmatning ma'nosi

Psixologik xizmatning ma'nosi ni tushuntirishda, bu o'quvchilarga psixologik yordam, muvofiqlashtirish, maslaxat topshirish, o'z-o'zini tadbirlash, o'z-o'zini oshkor qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, psixologik o'tirishni kontrol qilish va shunga o'xshash xizmatlarni taqdim etishni yoritishimiz kerak.

### 3. Psixologik xizmatning ahamiyati

Psixologik xizmatning ahamiyati bilan bog'liq ravishda, o'quvchilarimizning jismoniy va ma'naviy tarbiyalanishi, ta'lim muvaffaqiyati, o'zini tushunish darajasi va o'quvchi bilan o'zaro munosabatlarining ozgina ham yaxshilanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Psixologik xizmatlar, o'quvchilarning maqsadi yo'nalishidan qoniqlikka erishishiga yordam beradi va ularning ozodlik va o'z-o'zlarini baho berish qobiliyatini rivojlantirishda muhim muholik vazifa bajaradi.

Umumta'lim maktablarida olib borilayotgan psixologik xizmat jarayonining har jihatdan keng ko'lamli yo'nalishlarga ega ekanligi va har bir yo'nalishning o'ziga xos maqsadi hamda vazifalari borligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalar esa albatta maxsus bilimlarga va tajribalarga ega bo'lgan amaliyotchi psixologlar tomonidan amalga oshiriladi. Qolaversa, bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlardagi ta'lim muassasalarining yuqori darajadagi istiqbollarini o'ziga xos ijtimoiy maqsadlar asosida tashkil etilgan psixologik xizmat amaliyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, har qanday ta'limning ob'ekti ham sub'ekti ham o'quvchi shaxsining aynan o'zi hisoblanadi. O'quvchi shaxsi esa muayyan ijtimoiy ta'sirlar asosida shakllanuvchan va juda ko'plab o'zigagina xos bo'lgan betakror psixologik imkoniyatlarga ega bo'lgan ongli ijtimoiy mavjudotdir. Shu boisdan, aytish joizki, agarda biz ta'lim

samaradorligiga erishmoqchi bo'lsak, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tayyorlamoqchi bo'lsak, eng avvalo mazkur shaxsdagi psixologik imkoniyatlarni hamda unga bevosita ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarni empirik jihatdan o'rganishimiz, tahlil qilishimiz va shu tahlillarga tayanib tegishli darajada tarbiyaviy ishlarni olib borishimiz muqarrardir. Shu nuqtai nazardan olinganda, bugungi har bir o'quvchi shaxsiga uning ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir etuvchi kichik guruhlarini empirik jihatdan o'rganish va har bir o'rganilgan omilni psixologik xizmat doirasidagi talablar asosida talqin qilish va shu talqinlarga tayanib maktab amaliyotchi psixologlari muayyan tavsiyalarni ishlab chiqish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik xizmat doirasida umumta'lim maktablarida faoliyat yurituvchi rasmiy va norasmiy kichik guruhlarini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida qarash va uning o'ziga xos guruhiy, hududiy va etnopsixologik imkoniyatlari ko'lamiga empirik jihatdan baho berish orqali ijtimoiy psixologiyada amaliy tatbiqiy vazifalarni belgilash mumkin bo'ladi.

B.I.Dodonov, B.D.Porugin, V.V.Rozenbiat, va h.k.) bevosita bog'liq ekanligini alohida qayd etish mumkin.

Ilmiy matbuotda ma'lum va mashhur testlarning qo'llanilishi, jumladan, Liri testi asosida kichik guruhlarda shaxslararo munosabat motivatsiyasini o'rganishga qaratilgan sakkizta oktant natijalariga, shuningdek, Tomas testi natijalariga asoslangan beshta holat (bahs munozara, hamkorlik, o'zaro kelishuv, guruhdan o'zini chetga olish, guruhga moslashishning) guruhlar psixologiyasi talablari asosida o'rganilishi, kichik guruhlarini har jihatdan o'rganish va unga psixologik xizmatlar ko'rsatishni taqozo etadi.

Kichik guruhlarini o'rganishda o'z-o'zini hissiy baholash bilan bog'liq tadqiqotlarning yaratilishi (K.Izard, Riks-Uesman, Spilberger-Xanin, A.V.Zaxarova, va h.k.) ularga bevosita psixologik xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Taniqli psixolog R.S.Nemov tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy psixologiyada muhim o'rin tutuvchi kichik guruhlar doirasidagi o'quvchi shaxsi va shaxslararo faollik motivatsiyasining tarkib toptirilishiga daxldor bo'lgan guruhiy, ijtimoiy psixologik relief tizimidagi mezonlarning tadqiq qilinishi bugungi psixologik xizmat samaradorligini aniqlashda muhim metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

Maktabda kichik guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatish eng avvalo shu kichik guruhlar doirasidagi shaxslararo munosabat motivatsiyasining shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, maktab psixologi shaxslararo munosabat motivatsiyasi ko'rinishlarini ijtimoiy jihatdan to'laqonli tahlil etmas ekan bu guruhlar faoliyatini ijobiy tomonga yo'naltirish juda mushkuldir. Shu nuqtai nazardan, har bir guruhdagi rasmiy va norasmiy qatlamlarni qiyosiy tahlil qilish orqali kichik guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari belgilab olinishi zarur.

Metodologik asoslar shuni ko'rsatdiki, har bir o'quvchi shaxsini, uning ijtimoiy-psixologik tabiatini, imkoniyatlarini va o'ziga xos psixologik istiqbollarini aynan, u faollik ko'rsatayotgan kichik guruhlar doirasida talqin qilish, hamda shu talqinlar asosida unga muayyan darajadagi psixologik xizmatlar ko'rsatish ta'lim – o'ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, tobora yuksak pog'onalarga ko'tarilib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, fan, texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishga javob bera oluvchi jamiyat va shaxs ehtiyojlarining o'zaro vobastaligi zamirida shakllanayotgan guruhiy faollik jarayonlarini muayyan psixologik mezonlar asosida o'rganishga qaratilgan tadqiqot yo'nalishlarini belgilash masalasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Faqatgina ularning inshootlarigina yangilanib qolmasdan, balki ularning ichki muhitida ham tub burilishlar sodir bo'lmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha va maktab ta'limining samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- Karimova V. M. "Ijtimoiy psixologiya asoslari". - T., 1994  
Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002  
Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma`ruzalar matni - T., 2000  
Kovalev V. I. Motivi povedeniya i deyatelnosti. - M., 1988  
Mayers D. Sosialnaya psixologiya. - SPb., 1997  
Morgunov E. B. Lichnost i organizatsiya. - M., 1996  
Muzdibaev K. Psixologiya otvetstvennosti. - M., 1983  
Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy tahriri ostida. T.1992.  
Yadov V. A. Sosialnaya identichnost lichnosti. - M., 1994